

2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 7,1 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 7,0 mingga yaqin korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

2019 yil 1 yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyl sonining 5,0 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlari kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ularning ulushi 71,5 % tashkil etdi.

2019 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %




2019 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (31,5 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiyligi sonidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

**2018 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3% ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 6,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar jalb etilgan. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiylarda eng katta qismini savdo xizmatlari (31,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (11,3 %), tashish va saqlash (6,2 %), axborot va aloqa (1,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3,3%) tashkil etadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3822,1. mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (35,6 %), transport xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (5,6 %) ustunlikka ega.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 753,7 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 360,3. mlrd. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (118,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (72,3 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (62,1 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (18,7 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 253,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar - 212,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 68,9 mlrd.. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 23,7 mlrd.so'm ga oshgan.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3822,1	111,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	214,3	111,9
moliyaviy xizmatlar	149,7	149,7
transport xizmatlari	769,7	104,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	590,7	103,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	156,4	103,0
savdo xizmatlari	1358,4	104,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	81,1	104,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	131,4	113,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	35,1	106,6
ijara xizmatlari	66,6	105,9
kompyuterlar va ma'iший tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	70,8	102,9
shaxsiy xizmatlar	100,0	102,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	129,9	205,5
boshqa xizmatlar	175,7	105,6

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (205,5 %), moliyaviy xizmatlar (149,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,9 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (113,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,8 %), kompyuterva maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (102,9 %) va yashash va ovqatlanish xizmatlari (103,0 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining uchdan ko'proq qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 35,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,6 %) egallaydi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1358,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 253,8 mlrd.so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 82,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,3 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 5,8 % ni egallaydi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



O'zbekiston Respublikasi transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rnatutadi.

Transport xizmatlar tarkibida quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlar (77,7%), Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari (22,0%), Pochta va kurerlik xizmatlari (0,3%) ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 590,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 3,0 % ga oshdi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 69,1 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiylajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil xizmatlarining tarkibi, %




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 214,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari o'sishi 15,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,1 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



■ Telekommunikatsiya xizmatlari

■ Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.


Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 532,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 149,7 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar katta salmoqqa egadir. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida u, 89,8 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (99,3%) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, mlrd.so'm






Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalar, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 131,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 13,6 % tashkil etdi.



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 156,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 103,0 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,4 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 86,6 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 13,4 % ga to'g'ri keladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslatganda yashash bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri respublikada turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiat, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 0,8 f.p.ga oshgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Navoiy viloyati	3822,1	111,8
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Navoiy sh.	1 860,3	114,8
Zarafshon sh.	403,2	127,6
Konimex tumani	118,0	103,0
Qiziltepa tumani	294,2	105,8
Navbahor tumani	140,6	104,8
Karmana tumani	497,9	106,3
Nurota tumani	91,0	105,2
Tomdi tumani	70,9	103,9
Uchquduq tumani	143,3	104,9
Xatirchi tumani	202,6	104,1

Hududlar o'rtasida Navoiy shahri (1860,3 mlrd.so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Navoiy shahri bo'yicha 114,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Tomdi (70,9 mlrd. so'm), Nurota (91,0 mlrd. so'm) va Konimex (118,0 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.

2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shahrida (127,6 %), Karmana (106,3 %), Qiziltepa (105,8 %) va Nurota tumanlarida (105,2 %), qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Konimex (103,0%), Tomdi (103,9 %), Xatirchi (104,1 %) va Navbahor (104,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida hududlarning ulushi, %



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni Navoiy shahri (47,4 %), Karmana (13,7 %), Zarafshon shahri (9,2 %), Qiziltepa (8,1 %) va Xatirchi (5,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Tomdi (2,0 %), Konimex (3,4 %), Navbahor (3,9 %), Uchquduq (4,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2018 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan hajm 364,4 ming so'mga oshib, 3955,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 727,3 ming so'mga farq qildi.

Hududlar orasida bu ko'rsatkich Navoiy shahrida 13680,1 ming so'mdan, Nurota tumanida 1008,7 ming so'mgacha oraligida farq qildi. Xatirchi tumanida aholi jon boshiga ko'rsatkichi nisbatan pastligi ,ush bu hududdagi aholining ko'pligi bilan bog'liq. Taqqoslash uchun, Tomdi tumanida aholi soni juda oz (14,4 ming kishi), biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi nisbatan yuqori. U 1047,3 ming so'mga teng.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Zarafshon shahrida (25,2 %), Navoiy shahrida (13,8 %), Qiziltepa (4,3 %) va Tomdi (4,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Xatirchi va Tomdi tumanlarida uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari - 102,3 % qayd etildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

71-230-84-37

79-223-63-31